

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

FAYZULLAYEVA ZARNIGOR INATILLAYEVNA

**PARABOLIK TIPDAGI NOCHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI
ORQALI TAVSIFLANADIGAN HARAKATLANUVCHI
MUHITLARDAGI DIFFUZIYA JARAYONLARINI SONLI
MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Fayzullayeva Zarnigor Inatillayevna

Parabolik tipdagi nochiqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanadigan harakatlanuvchi muhitlardagi diffuziya jarayonlarini sonli modellashtirish.3

Файзуллаева Зарнигор Инатиллаевна

Численное моделирование диффузионных процессов в движущихся средах, описываемых системой нелинейных уравнений параболического типа.21

Fayzullaeva Zarnigor Inatillaevna

Numerical modeling of diffusion processes in convective transfer described by a system of nonlinear parabolic equations.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

FAYZULLAYEVA ZARNIGOR INATILLAYEVNA

**PARABOLIK TIPDAGI NOCHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI
ORQALI TAVSIFLANADIGAN HARAKATLANUVCHI
MUHITLARDAGI DIFFUZIYA JARAYONLARINI SONLI
MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLAR BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi attestatsiya komissiyasida B2022.4. PhD/T3287 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida(www.airi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sadullayeva Shaxlo Azimboyevna fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Po'latov Asxad Muxamedjanovich fizika-matematika fanlari nomzodi, professor Muradov Farrux Abdulkaxarovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi Phd.13/30.12.2021.T.142.01 Ilmiy kengashning 2023 yil «12.12» soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Buz 2, 17A Tel.: (99871) 263 41 98).

Dissertatsiya ishi bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti axborot resurslari markazida tanishish mumkin (registratsiya raqami № 39). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Buz-2, 17A. Tel.: (99871) 263-41-98).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «30» noyabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «17» noyabr dagi 7 raqamli ryestr bayonnomasi).







N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi kunda tabiatda uchraydigan ko'pgina jarayonlarni ifodalovchi nochiziqli tenglama va tenglamalar sistemalariga oid tadqiqotlar dolzarb hamda zarur hisoblanib, fan-texnikaning ko'plab sohalariga, xususan, mexanika, fizika, texnologiya, ekologiya, biofizika, biologiya, tibbiyot va boshqa turli sohalariga keng tatbiq etilmoqda. Shu sababli nochiziqli matematik modellarini tadqiq etish, samarali sonli yechish sxemalari va algoritmlarini qurish hamda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ularning dasturiy ta'minotini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Elsevier tahliliy markazi bazasi ma'lumotlariga ko'ra nochiziqli reaksiya-diffuziya tenglamasi uchun qo'yiladigan Koshi masalasini chegaraviy shartlarda yechish va natijalarini amaliyotga tatbiq etishda nochiziqli filtratsiya va biologik populyatsiyaga bag'ishlangan dunyo olimlarining ilmiy ishlari soni muntazam ravishda oshib bormoqda. Dunyoning ushbu sohada rivojlangan davlatlar olimlarning jumladan AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Ozarbayjon, Turkiya, Xitoy, Italiya va boshqa mamlakatlarida nochiziqli reaksiya-diffuziya tenglamasi va tenglamalar sistemasi, shuningdek parabolik tipdagi masalalar uchun Koshi masalasi va ushbu tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rganish va tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda oxirgi yillarda qator fundamental masallar nochiziqli jarayonlarni matematik modellashtirish, vizuallashtirish usullari va vositalarini takomillashtirish, ikki karra nochiziqli diffuziya masalalari yechimlarining muhim natijalarini amaliyotga joriy etish bilan bog'liq bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda parabolik tenglamalar sistemalari bilan tavsiflangan nochiziqli matematik modellarni o'rganish va tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan muhim vazifalardan biridir: o'zgaruvchan koeffitsiyentli dempirlanish ta'siridagi nochiziqli diffuziya tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining yechimlarini qurib olish; nochiziqli masalalarni sonli modellashtirish samarali algoritmini ishlab chiqish; nochiziqli modellarni o'rganish natijasida vizuallashtirish usullarini ishlab chiqish; nochiziqli jarayonlarni o'rganishga yordam beruvchi kompleks dasturlar yaratish; hisoblash eksperimentini o'tkazish, vaqt bo'yicha evolutsion jarayonni kuzatish, parametrlarning dinamik o'zgarishida jarayonning borish hodisasini kompyuterda vizual ko'rinishini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda nochiziqli jarayonlarni matematik va sonli modellashtirish, dasturiy majmuini ishlab chiqish, kompyuterda vizuallashtirish uchun samarali algoritmlar ishlab chiqish, ikki komponentali muhitda nochiziqli parabolik tenglamalar sistemasi orqali ifodalanuvchi diffuziya jarayonlarini tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni baholash uchun avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotlarni yaratish uchun keng qamrovli chora tadbirlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmonda, jumladan «sug'orish suvini yetkazish xarajatlarining bir

qismini bosqichma-bosqich suv iste'molchilari tomonidan qoplash tizimini joriy qilish, tushgan mablag'larni suv xo'jaligi obyektlarini o'z vaqtida sifatli ta'mirlashtirishga, raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda samarali boshqarishga yo'naltirish...»¹. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalar asosida tadqiq qilinayotgan jarayonga ta'sir qiluvchi turli xil omillarni hisobga olgan holda diffuziya jarayonlarining matematik modellari, samarali hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish va avtomatlashtirilgan tizimlar yaratish muhim masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son «Innovation g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021-yil 10-fevraldagi PQ-4986-son «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini yanada rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV.«Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ikki komponentali muhitlarda parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tasvirlanuvchi issiqlik tarqalish, diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish, sonli yechish, yechimlarning fazoviy lokallasishi, erkin chegara bahosi, nochiziqli masalalarni sonli yechishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqodlar dunyoda ko'pgina olimlar tomonidan zo'r qiziqish bilan o'rganilmoqda. Ularning so'nggi yillarda Springer, Emerald, Ebsco Information Services, Web of Science, Wiley, Elsevier, asosan Web of Science va Scopus ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy jurnallarga nashr etilgan ilmiy izlanishlari natijalari ko'rish mumkin. H.A.Levine, H.Fujita, H.Matano, M.Mimura, X.Y.Chen, M.Chunlai, W.Du, J.Yin, Y.Wang, M.X.Wang, Z.Xiang, X.F.Song, M.Sugimoto, C.V.Pao, G.Grillo, M.Muratori, W.H.Ruan, Y.Naito, L.A.Caffarelli, A.Friedman, B.Mcleod, Michael Winkler, A.P. Mixaylov, S.N.Dimova, M.S.Kosteshiev, M.J.Koleva, V.A.Galaktionov, Ye.Kurkina va boshqa shu kabi olimlar o'zgaruvchan zichlikga ega nochiziqli, diffuziya masalalari yechimlarining global va global bo'lmaslik shartlarini tadqiqi bo'yicha Z.Li, A.Samarskiy, W.Du,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2021 yildagi PQ-5005-son «O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» qarori.

Guirong Liu, Yuan-Wei Qi, A.F.Tedeev, A.V.Martinenko, N.V.Afanasyeva, S.P.Degtyarevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Nochiziqli jarayonlarni tadqiq etishda suyuqlik va gaz filtratsiya masalalarini o'rganishda O'zbekiston olimlaridan V.Qobulov, F.Abutaliyev, E.Abutaliyev, M.Aripov, N.Muxiddinov, A.Begmatov, R.Sadullayev, A.Begmatov, B.Xo'jayarov, I.Xo'jaev, N.Ravshanov, E.Nazirova, R.Usmonov, Ch.Normurodov, A.Ne'matov va boshqa olimlarning ilmiy maktablari bugungi kunda muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar bilan ifodalanuvchi matematik modellarni avtomodel yondashuv asosida qurib olingan yechim xossalarini o'rganish va kompyuterda vizual tadqiq etish bo'yicha M.Aripov va uning shogirdlari T.Qayumov, D.Eshmatov, A.Xaydarov, J.Muxammadiyev, F.Kabiljanova, Sh.Sadullayeva, A.Matyakubov, D.Muxamadieva, Z.Raxmonov, O.Jabborov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Bu sohadagi olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda issiqlik o'tkazuvchanlik, diffuziya va filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018(399+487) raqamli «Ikki komponentli muhitda diffuzion jarayonlarni sonli modellashtirish uchun amaliy dasturlar paketini yaratish»(2017-2020) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanadigan konvektiv ko'chishga ega bo'lgan reaksiya-diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish, sonli yechish va dasturiy majmuasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki komponentli nochiziqli muhitlarda parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanuvchi diffuziya jarayonlarini matematik modellarini takomillashtirish, global yechim mavjudlik shartlarini topish, yechimlarning yangi xususiyatlari, tezlik tarqalishining chekliligi va lokallashtirish xossalarini aniqlash;

konvektiv ko'chish va dempirlash ta'siridagi nochiziqli diffuziya tenglamalar sistemasini bilan ifodalaydigan nochiziqli modellar uchun tez, sekin diffuziya va kritik hollarda yechimlarning asimptotikalarini olish;

ikki komponentli nochiziqli muhitlarda parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanuvchi diffuziya masalasini sonli yechish sxemalarini qurish;

manba va o'zgaruvchan zichlikka ega, konvektiv ko'chish va dempirlash hadiga ega nochiziqli diffuziya masalasini hisoblash algoritmlarini qurish, nochiziqli masalalarni kompyuterda vizuallashtirish uchun dasturiy majmua ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar

sistemasi orqali tasvirlanadigan diffuziya jarayonlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti parabolik tipdagi nohiziqli tenglamalar sistemasi orqali tasvirlanadigan konvektiv ko'chishga ega bo'lgan diffuziya jarayonlarining matematik modellari, sonli sxemalar va sonli yechish algoritmi hamda dasturiy ta'minotlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida matematik modellashtirish va hisoblash matematikasining sonli usullari, diskret sohaning axborot massivini qurish, dasturlash hamda kompyuter texnologiyalari uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki komponentli nohiziqli muhitlarda parabolik tipdagi nohiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanuvchi diffuziya jarayonlarini matematik modellarini takomillashtirilgan, global yechim mavjudlik shartlari topilgan, tarqalish tezligining chekliligi va lokallashish xossalari aniqlangan;

konvektiv ko'chish va dempirlash ta'siridagi nohiziqli diffuziya tenglamalar sistemasini bilan ifodalaydigan nohiziqli modellar uchun tez, sekin diffuziya va kritik hollarda yechimlarining asimptotikalari qurilgan;

ikki komponentli nohiziqli muhitlarda parabolik tipdagi nohiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanuvchi diffuziya masalasini sonli yechish sxemalarini qurilgan;

manba va o'zgaruvchan zichlikka ega, konvektiv ko'chish va dempirlash hadiga ega nohiziqli diffuziya masalasini hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

manba va o'zgaruvchan zichlik, konvektiv ko'chish va dempirlash hadiga ega nohiziqli diffuziya masalasini hisoblash algoritmlari asosida vizual nohiziqli jarayonlarni o'rganish imkonini beruvchi dasturiy majmua ishlab chiqildi va kompyuterda hisoblash tajribalari o'tkazildi;

ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida vaqtga bog'liq bo'lgan reaksiya-diffuziya xossalarini parametrlarning qiymatlariga bog'liq holda evolyutsiyani o'rganish, monitoring qilish dasturiy kompleksi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar va tasdiqlar bilan qat'iy isbotlangan va sonli tadqiqotlar natijalari hamda hisoblash eksperimenti natijalari bilan tasdiqlanadi, olingan natijalarning saqlanish qonunlariga muvofiqligi bilan va avtomodel tahlilga asoslangan hisoblash metodlarining to'g'riligini hamda samaradorligini tasdiqlangani bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati diffuziya, viruslarning tarqalishi, suyuqlik va gazni filtrlash, termal diffuziya jarayonlarini tavsiflovchi harakatlanuvchi muhitda dempirlash ta'sirida nohiziqli parabolik tenglamalar sistemasining avtomodel yechimlarini qurish usullari, asimptotik formulalar, sonli yechish sxemalarini qurish va jarayonlar modellarini hamda hisoblash algoritmlari ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan dasturlash uslublari nohiziqli filtrlash, issiqlik tarqalishi, diffuziya, yer osti suvlarining harakati kabi jarayonlarni hisoblash tajribalarini o'tkazish orqali o'rganishda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tasvirlanadigan diffuziya jarayonlari masalalarini sonli hamda analitik yechish bo'yicha olingan ilmiy natijalar amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda joriy etilgan:

parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanadigan harakatlanuvchi muhitlardagi diffuziya jarayonlarini sonli modellashtirish asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita «O'zbekiston temir yo'llari» AJ «Sardoba temir yo'l agrosanoat» MChJ obektida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1893-son ma'lumotnomasi). Natijada suv tarqalish jarayonlarini vizual monitoring qilishda ishlab chiqilgan dastur samaradorligi 5-6 foizga ga oshish imkon bergan;

ikki komponentali nochiziqli tenglamalar sistemasi uchun ishlab chiqilgan dasturiy vosita O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti «Dinamik sistemalar va ularning tatbiqlari ilmiy laboratoriya»sida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1893-son ma'lumotnomasi). Natijada bir jinsli bo'lmagan g'ovak muhitda suyuqlik filtratsiyasi masalalarini yechish, tarqalish tezligi cheklilik effekti, fazoviy lokalizatsiyani aniqlash uchun ketadigan vaqt 10-12 foizga qisqartirish imkonini bergan;

ikki komponentali muhit uchun parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalar sistemasida avtomodel yechimni qurish va sonli yechish uchun ishlab chiqilgan algoritmlar asosida yaratilgan dasturiy vosita O'zbekiston Respublikasi va «Geo Interpretation Group» MChJ obektida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 23-martdagi 33-8/1893-son ma'lumotnomasi). Natijada neft qazib olish jarayonini avtomatlashtirish uchun hisoblashga ketadigan vaqt 10-12 foizga ga qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza qilingan: ulardan 7 tasi xalqaro, 4 tasi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning nashr qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shundan 4 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 2 ta maqola xorijiy va 2 ta maqola respublika jurnallari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda 7 ta maqola, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida 4 ta maqola, EHM uchun dasturiy mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida 2 ta guvohnomalari olgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 103 sahifadan iborat bo'lib, kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Parabolik tipdagi nochizqli diffuziya jarayonlarining matematik modeli tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida parabolik tipdagi nochizqli diffuziya jarayonlarining matematik modellari haqida ma‘lumotlar hamda dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari sharhi keltirilgan. Bu bobda konvektiv ko‘chish hamda dempirlash ta’siri mavjud bo‘lgan parabolik tipdagi nochizqli tenglama va tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining global yechim xossalari keltirilgan. Tabiatda uchraydigan ko‘pgina jarayonlar va hodisalarni nochizqli parabolik tipdagi xususiy hosilali nochizqli differensial tenglamalar va tenglamalar sistemalari yordamida ifodalanadi hamda tuz-chang ko‘chishi jarayonlari, issiqlik tarqalishi jarayonlari, g‘ovak tuproqdagi filtrlash, mayda qon tomirlarida qonning harakatlanishi, chiqindilarning bug‘lanib tarqalishi, biologik populyatsiyaning o‘sishi va ko‘chishi kabi jarayonlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Nochizqli tenglamalar va tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini o‘rganishda ikki karra nochizqli parabolik tipdagi masalalarda sonli parametrlarining qiymatlarini hisobga olgan holda yuzaga keladigan global yechimning fazoviy lokallashishi, sifat xossalari ko‘rib chiqilgan.

1.1-paragrafda parabolik tipdagi ikki karra nochizqli, dempirlash hadi mavjud bo‘lgan quyidagi bitta tenglama uchun Koshi masalasi qaralgan

$$L(u) \equiv -\frac{\partial u}{\partial t} + \frac{\partial}{\partial x} \left(u^{m-1} \left| \frac{\partial u^k}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial u}{\partial x} \right) - g(x,t) \left| \frac{\partial u^m}{\partial x} \right|^{p_1} u^{q_1} = 0, \quad (t > 0, x \in R), \quad (1)$$

$$u(x,0) = u_0(x) \geq 0. \quad (2)$$

(1) tenglamada $g(x,t) = g(x)$, $u(x,t) = u(x)$ bo‘lgan holini M.Aripov, O.Jabborov tomonidan global yechim mavjudligi shartlari olingan. Bu holda tenglama quyidagi ko‘rinishda statsionar bo‘ladi

$$\frac{d}{dx} \left(u^{m-1} \left| \frac{du^k}{dx} \right|^{p-2} \frac{du}{dx} \right) - g(x) \left| \frac{du^m}{dx} \right|^{p_1} u^{q_1} = 0, \quad (3)$$

$$u(x,0) = u_0(x) \geq 0, \quad x \in R,$$

bu yerda k, p, m, p_1, q_1 sonli parametrlar.

(3) uchun global yechimning fazoviy lokallashish shartlari olingan, ya’ni $p > p_1$, $k(p-2) + m - (p_1 m + q_1) > 0$ yoki $p < p_1$, $k(p-2) + m - (p_1 m + q_1) < 0$ bo‘lganda,

shuningdek $b \leq \left(\frac{\gamma_1^{p-p_1-1} k^{p-2} (\gamma_1 (k(p-2) + m) - (p-1))}{\gamma m^{p_1}} \right)^{\frac{1}{p}}$,

$\gamma_1 = \frac{p - p_1}{k(p-2) + m - (p_1 m + q_1)}$, $p \neq p_1$, $k(p-2) + m \neq (p_1 m + q_1)$ shartlar bajarilganda (1)-

(2) masalaning yechimi uchun $Q = \{(t, x) : t > 0, x \in R\}$ da

$$u(t, x) \leq u_+(t, x) = \bar{u}(x) \text{ o'rinli va } \bar{u}(x) = \left(a - \frac{x}{b}\right)^{\gamma_1} \text{ ga teng.}$$

(3) statsionar tenglamaning yechimi $x \rightarrow ab - 0$ da quyidagi asimptotik ko'rinishga ega bo'ladi

$$u(x) = A \left(a - \frac{x}{b}\right)^{\gamma_1} (1 + o(1)),$$

bu yerda

$$A = \left[\frac{\gamma m^{p_1} k^{2-p}}{((\gamma_1 k - 1)(p-2) + (\gamma_1 m - 1)) \left(\frac{b}{\gamma_1}\right)^{p-p_1-1}} \right]^{\frac{1}{m+k(p-2)+1-(mp_1+q_1)}},$$

$$\gamma_1 = \frac{p - p_1}{k(p-2) + m - (p_1 m + q_1)}.$$

Masalani sonli yechishda yuqoridagi qurib olingan dastlabki yaqinlashish shartlar asosida sonli sxemalar qurilgan va hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Dissertasiyaning «**Parabolik tipdagi manbaga ega bo'lgan noxizqli diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafida $Q = \{(t, x) : t > 0, x \in R^N\}$ sohada bir jinsli bo'lmagan muhitda zichlikka ega bo'lgan quyidagi noxizqli parabolik tenglamalar sistemasi keltirilgan

$$\begin{cases} \frac{\rho(x)\partial u}{\partial t} = \operatorname{div}(|x|^n u^{m_1-1} |\nabla u|^{p-2} \nabla u) + \rho(x)\gamma(t)u^{q_1}v^{r_1}, \\ \frac{\rho(x)\partial v}{\partial t} = \operatorname{div}(|x|^n v^{m_2-1} |\nabla v|^{p-2} \nabla v) + \rho(x)\gamma(t)u^{q_2}v^{r_2}, \end{cases} \quad (4)$$

$$u(0, x) = u_0(x) \geq 0, \quad (5)$$

$$v(0, x) = v_0(x) \geq 0, \quad x \in R^N,$$

bunda $m_1 \geq 1, m_2 \geq 1, n \in R$, $q_1, q_2, r_1, r_2 \geq 1$, $p \geq 2$ - sonli parametrlar $\nabla(\cdot) - \operatorname{grad}(\cdot)$,

$u_0(x), v_0(x)$, $x \in R^N$ manfiy bo'lmagan uzluksiz funksiyalar, $\rho(x) = |x|^l$, $0 < \gamma(t) \in C(0, \infty)$.

(4) tenglamalar sistemasining avtomodel yondashuv asosida global yechimini qurib olingan va yechim asimptotikasi xossalarini $m_i + p - 3 > 0$, $i = 1, 2$ sekin diffuziya, $m_i + p - 3 < 0$, $i = 1, 2$ tez diffuziya va $m_i + p - 3 = 0$, $i = 1, 2$ holi uchun o'rganilgan. (4) da

$\rho(x)\gamma(t)u^{q_1}v^{r_1}$, $\rho(x)\gamma(t)u^{q_2}v^{r_2}$ - manba quvvati,

$\rho(x)$ -o'zgaruvchan zichlik,

$\gamma(t)$ -manbaning tezligi.

(4) tenglamalar sistemasi $u = v = 0$ bo'lganda qaralayotgan sohada buzilish sodir bo'ladi, bunday holatlarda tenglamalar sistemasi klassik ma'noda har doim yechimga ega emas. Shuning uchun (4) tenglamalar sistemasini fizik ma'noga ega

bo'lgan ma'lum bir shartlarni qanoatlantiruvchi quyidagi

$$0 \leq u, v \in C(Q) \quad |x|^n u^{m_1-1} |\nabla u|^{p-2} \nabla u, |x|^n v^{m_2-1} |\nabla v|^{p-2} \nabla v \in C(Q)$$

xossaga ega bo'lgan sohada o'rganiladi.

(4) tenglamalar sistemasining global yechimlari uchun chekli tarqalish tezligi hodisasi o'rinli bo'lib, shunday $l_1(t)$, $l_2(t)$ uzluksiz funksiyalar, $|x| \geq l_1(t)$ va $|x| \geq l_2(t)$ bo'lganda

$$u(t, x) \equiv 0 \quad \text{va} \quad v(t, x) \equiv 0$$

bo'ladi.

$|x| = l_1(t)$, $|x| = l_2(t)$ - erkin chegara yoki front deb ataladi.

(4)-(5) uchun avtomodel yondashuv asosida avtomodel tenglamalar sistemasi qurib olindi va avtomodel yechim qurib olindi, yechimining asimptotik harakati va erkin chegara $l_i(t)$, $i = 1, 2$. aniqlandi, shuningdek, avtomodel yechim asimptotikalari olindi. (4)-(5) masalaning qurib olingan boshlang'ich yaqinlashish asosida sonli yechish sxemalari va hisoblash algoritmlari ishlab chiqildi. Sonli yechish orqali qaralayotgan reaksiya-diffuziya jarayoni kompyuterda tajriba sinov o'tkazildi.

(4) sistema uchun avtomodel va taqribiy avtomodel tenglamalar sistemani qurib olish maqsadida tenglamalar sistemasining yechimini quyidagi ko'rinishda izlanadi:

$$\begin{cases} u(t, x) = \bar{u}(t) w(\tau(t), \varphi|x|), \\ v(t, x) = \bar{v}(t) z(\tau(t), \varphi|x|), \end{cases} \quad (6)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} \bar{u} &= B [T + t]^{-r_1 - kq_1 + 1}, \quad \bar{v} = B [T + t]^{-r_1 - kq_2 + 1}, \\ A &= \left((-r_1 - kq_2 + 1) \left(\frac{1}{k} \right)^{-r_1 + q_2 + 1} \right)^{\frac{1}{-r_1 - kq_1 + 1}}, \quad B = \left(\frac{1}{k} \right)^{-r_1 + q_2 + 1}, \quad k = \frac{q_2 - r_1 + 1}{q_1 - r_2 + 1} \\ &\begin{cases} \frac{\partial \bar{u}}{\partial t} = \gamma(t) \bar{u}^{-q_1} \bar{v}^{-r_1}, \\ \frac{\partial \bar{v}}{\partial t} = \gamma(t) \bar{u}^{-q_2} \bar{v}^{-r_2}. \end{cases} \end{aligned}$$

(4) ni (4) ga qo'yib quyidagi radial-simmetrik tenglamalar sistemasi olinadi

$$\begin{cases} \frac{\partial w}{\partial \tau} = \varphi^{1-s} \frac{\partial}{\partial \varphi} \left(\varphi^{s-1} w^{m_1-1} \left| \frac{\partial w}{\partial \varphi} \right|^{p-2} \frac{\partial w}{\partial \varphi} \right) - \gamma(t) \bar{u}^{-q_1 - (p+m_1-2)} \bar{v}^{-r_1} (w - w^{q_1} z^{r_1}), \\ \frac{\partial z}{\partial \tau} = \varphi^{1-s} \frac{\partial}{\partial \varphi} \left(\varphi^{s-1} z^{m_2-1} \left| \frac{\partial z}{\partial \varphi} \right|^{p-2} \frac{\partial z}{\partial \varphi} \right) - \gamma(t) \bar{u}^{-q_2 - (p+m_2-2)} \bar{v}^{-r_2} (z - w^{q_2} z^{r_2}). \end{cases} \quad (7)$$

$\tau(t)$ quyidagicha aniqlanadi

$$\tau(t) = \int_0^t \bar{v}^{m_1-1}(\eta) \bar{u}^{p-2}(\eta) d\eta = \int_0^t \bar{u}^{m_2-1}(\eta) \bar{v}^{p-2}(\eta) d\eta,$$

$$\varphi(r) = \frac{1}{p_1} |r|^{p_1}, \quad |r| = \sqrt{\sum_{i=1}^N x_i^2}, \quad p_1 = \frac{p-(n+l)}{p}, \quad s = p \frac{N-l}{p-(n+l)}, \quad n+l < p.$$

(7) tenglamalar sistemasida quyidagi almashtirishni amalga oshiramiz

$$w(\tau, \varphi) = f(\xi),$$

$$z(\tau, \varphi) = \psi(\xi),$$

bu yerda $\xi = \frac{|x|}{\tau^{1/p}}$.

Natijada quyidagi nochiziqli taqribiy avtomodel sistemasi hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} \xi^{1-s} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{s-1} f^{m_1-1} \left| \frac{df^k}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{df}{d\xi} \right) + \frac{\xi}{p} \frac{df}{d\xi} + \gamma(t) \tau(t) u^{-q_1-(p+m_1-2)-r_1} v (f - f^{q_1} \psi^{r_1}), \\ \xi^{1-s} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{s-1} \psi^{m_2-1} \left| \frac{d\psi^k}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\psi}{d\xi} \right) + \frac{\xi}{p} \frac{d\psi}{d\xi} + \gamma(t) \tau(t) v^{-q_2-(p+m_2-2)-r_2} v (\psi - \psi^{q_2} f^{r_2}). \end{cases} \quad (8)$$

Agar $t \rightarrow \infty$ da

$$\gamma(t) \tau(t) u^{-q_1-(p-1)-(m_1-1)-r_1} \mathcal{G} \rightarrow const,$$

$$\gamma(t) \tau(t) v^{-q_2-(p-1)-(m_2-1)-r_2} \mathcal{V} \rightarrow const.$$

shartlar bajarilsa, u holda (8) tenglamalar sistemasi avtomodel tenglamalar sistemasi ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunda $0 < \gamma(t) \in H$, H - Hardi sinfi.

$$\begin{cases} \xi^{1-s} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{s-1} f^{m_1-1} \left| \frac{df^k}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{df}{d\xi} \right) + \frac{\xi}{p} \frac{df}{d\xi} + C_1 (f - f^{q_1} \psi^{r_1}), \\ \xi^{1-s} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{s-1} \psi^{m_2-1} \left| \frac{d\psi^k}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\psi}{d\xi} \right) + \frac{\xi}{p} \frac{d\psi}{d\xi} + C_2 (\psi - \psi^{q_2} f^{r_2}). \end{cases} \quad (9)$$

$\gamma(t) = const$ bo'lgan holda (12) tenglamalar sistemasi finit yechimga ega bo'ladi.

(9) tenglamalar sistemasini quyidagi chegaraviy shartlar bilan qaraymiz

$$f(0) = c_1 > 0, \quad f(b) = 0,$$

$$\psi(0) = c_1 > 0, \quad \psi(b) = 0,$$

bu yerda $0 < b < +\infty$.

M.Aripov va A.Matyakubov ilmiy ishlarida $\gamma(t) = 0$, $n = l = 0$, $p = 2$ holda masalaning avtomodel yechimining mavjudligi o'z isbotini topgan va mavjudligi shartlari olingan. Bu paragrafda avtomodel tenglamalar sistemasining $m_1 + p - 3 > 0$, $m_2 + p - 3 > 0$ bo'lgan hollarda yechim asimtotikasi qurib olingan.

Yechimlarning sifat xossalariga asoslanib, sonli tajriba sinov natijalari olindi. Hisoblash tajribalari natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'llanilgan sonli usullar o'rganilayotgan nochiziqli masalalarni sonli yechishda samarali bo'ldi.


O'zgaruvchan zichlik va manbaga ega bo'lgan nochiziqli diffuziya

tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini sonli yechish sxemalari va hisoblash algoritmlari ishlab chiqildi. Sonli yechish orqali qaralayotgan reaksiya-diffuziya jarayoni kompyuterda C# dasturlash tilida dasturiy majmuasi yaratildi va vizuallashtirish JavaScriptda muhitida amalga oshirildi. Tajriba sinov natijalari tenglamalar sistemasining parametrlarining turli qiymatlarida olindi. Masalani sonli yechishda o'zgaruvchan yo'nalishlar usulidan (ko'p o'lchovli holat uchun) foydalangan holda oshkormas sxema qo'llanildi. Iterativ jarayonda chiziqli ko'rinishga keltirish uchun maxsus usulidan foydalanildi.


Maxsus usulda quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz

$$\begin{cases} \left(\sqrt{x_{1,i}^2 + x_{2,i}^2}\right) \frac{y_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} - y_{i,j}^l}{0.5 \cdot \tau} = \Lambda_1 y_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} + \Lambda_2 y_{i,j}^l + |x|^{-l} \gamma(t_j) \left(y_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{q_1} \left(z_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{r_1} \\ \left(\sqrt{x_{1,i}^2 + x_{2,i}^2}\right) \frac{y_{i,j}^{l+1} - y_{i,j}^{l+\frac{1}{2}}}{0.5 \cdot \tau} = \Lambda_1 y_{i,j}^{l+1} + \Lambda_2 y_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} + |x|^{-l} \gamma(t_j) \left(y_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{q_1} \left(z_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{r_1} \\ \left(\sqrt{x_{1,i}^2 + x_{2,i}^2}\right) \frac{z_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} - z_{i,j}^l}{0.5 \cdot \tau} = \Lambda_1 z_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} + \Lambda_2 z_{i,j}^l + |x|^{-l} \gamma(t_j) \left(y_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{q_2} \left(z_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{r_2} \\ \left(\sqrt{x_{1,i}^2 + x_{2,i}^2}\right) \frac{z_{i,j}^{l+1} - z_{i,j}^{l+\frac{1}{2}}}{0.5 \cdot \tau} = \Lambda_1 z_{i,j}^{l+1} + \Lambda_2 z_{i,j}^{l+\frac{1}{2}} + |x|^{-l} \gamma(t_j) \left(y_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{q_2} \left(z_i^{l+\frac{1}{2}}\right)^{r_2} \end{cases}$$

Quyidagi hisoblash natijalariga ko'ra u va v komponentlar diffuziya jarayoni vaqtning har bir qiymatida, (4)-(5) masalaning parametrlarining $n=2$; $m_1=1.5$; $m_2=2$; $p=2.5$; $q_1=2$; $q_2=1.8$; $r_1=1.5$; $r_2=2$; $k=1$; $\gamma=1.2$ qiymatlarida va manba mavjud bo'lganda vaqt o'zgarishida jarayon borishini vizual ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. $u(t,x,y)$ $t=0, t=2, t=3$ da manbaga ega bo'lgan holda diffuziya jarayoni



2-rasm. $v(t,x,y)$ $t=0, t=2, t=3$ da manbaga ega bo'lgan holda diffuziya jarayoni

O'rganilayotgan tenglamalar sistemasidagi sonli parametrlarning turli qiymatlarida u va v uchun kompyuterda tajriba sinov natijalari olindi. Masalaning $k=1, m=1, n=0$ bo'lgani holda J.L.Vazkes va V.Galaktionov tomonidan, $k=1, p=2, n=0$ holda V.Galaktionov A.Posashkov va $k=1, p=2, m=1, n=0$ holda esa

A.A.Samarskiy, S.P.Kurdyumov, A.P.Mixaylov, V.A.Galaktionov tomonidan olingan najjalar kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning «**Konvektiv ko‘chish hamda dempfirlashga ega diffuziya jarayonlarining matematik modellashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida parabolik tipdagi noxiziqli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi ko‘rib chiqilgan.

“Ikki karra noxiziqli reaksiya-diffuziya tenglamalar sistemasini sonli yechish” deb nomlangan birinchi paragrafda tezligi vaqtga bog‘liq bo‘lgan konvektiv ko‘chish hamda dempfirlash tasirida ikki komponentli noxiziqli muhitda diffuziya jarayonini tasvirlovchi (14)-(15) masalaning $m=k$ holi uchun yechimlarning sifat xossalari o‘rganadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida o‘rganilayotgan masalaning global yechimlarining sifat xossalari o‘rganilgan.

Tezligi vaqtga bog‘liq bo‘lgan konvektiv ko‘chish hamda dempfirlash tasirida ikki komponentli noxiziqli diffuziya jarayonining matematik modeli uchun Koshi masalasi $Q = \{(t, x) : t > 0, x \in R\}$ sohada $m=k$ holi uchun o‘rganildi

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\left| \frac{\partial u^{k_1}}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial u^{m_1}}{\partial x} \right) \pm s(t) \frac{\partial u}{\partial x} - b_1 u^{q_1} \left| \frac{\partial v^{m_1}}{\partial x} \right|^{p_1}, \\ \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\left| \frac{\partial v^{k_2}}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial v^{m_2}}{\partial x} \right) \pm s(t) \frac{\partial v}{\partial x} - b_1 v^{q_2} \left| \frac{\partial u^{m_2}}{\partial x} \right|^{p_2}. \end{cases} \quad (10)$$

$$u(x, 0) = u_0(x) \geq 0, \quad v(x, 0) = v_0(x) \geq 0, \quad x \in R^1 \quad (11)$$

bu yerda t - vaqt, x - fazoviy o‘zgaruvchi, $p \geq 2, q_i > 0, m_i \geq 1, (i=1,2)$ - sonli parametrlar,

$b_1 u^{q_1} \left| \frac{\partial v^{m_1}}{\partial x} \right|^{p_1}, b_1 v^{q_2} \left| \frac{\partial u^{m_2}}{\partial x} \right|^{p_2}$ - dempfirlash hadlari,

$s(t) \frac{\partial u}{\partial x}, s(t) \frac{\partial v}{\partial x}$ - konvektiv ko‘chish,

$s(t)$ -konvektiv ko‘chish tezligi.

(10) tenglamalar sistemasida $p=2$ bo‘lgan holida Buseneski tenglamalarini, $m=2, p=2$ bo‘lgan holida Leybenson tenglamalarini, yer osti suvlari harakatini tasvirlaydi, $k=m$ bo‘lganda P-Laplas tenglamalarini ifodalaydi. (10)-(11) masala noxiziqli muhitda diffuziya jarayonini, g‘ovak muhitlardagi suyuqliklarning tarqalishi, biologik populyatsiya dinamikasi, politropik filtratsiya va boshqa bir qator sohalardagi masalalarni yechishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan $u(x, t)$ va $v(x, t)$ lar ikki biologik populyatsiya turini yoki g‘ovak muhitda iikki komponentali issiqlik tarqalish jarayoni ifodalaydi.

Ma’lumki (14) tenglamalar sistemasi $u, v \equiv 0$ bo‘lganda o‘rganilayotgan $Q = \{(t, x); 0 < t < T, x \in R_+\}$ sohada buziluvchi bo‘lib, klassik ma’nodagi yechimga

ega bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ham (10)-(11) masalani yechishda sonli usullardan foydalanamiz.

(10) tenglamalar sistemasi $k(p-2)+m-1 > 0$ da sekin diffuziya jarayonini, $k(p-2)+m-1 < 0$ da tez diffuziya jarayonini ifodalaydi.

«Ikki marta noxiziqli reaksiya-diffuziya tenglamalar sistemasini sonli yechish» deb nomlangan uchinchi paragrafda parabolik tipdagi tezligi vaqtga bog'liq bo'lgan konvektiv ko'chish hamda dempirlash tasirida ikki komponentli noxiziqli muhitda diffuziya tenglamalar sistemasini sonli yechishni ko'rib chiqilgan

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(B_1(u) \frac{\partial u}{\partial x} \right) + c v_1(t) \frac{\partial u}{\partial x} - b_1 u^{q_1} \left| \frac{\partial v^{m_1}}{\partial x} \right|^{p_1}, \\ \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(B_2(v) \frac{\partial v}{\partial x} \right) + c v_2(t) \frac{\partial u}{\partial x} - b_2 v^{q_2} \left| \frac{\partial u^{m_2}}{\partial x} \right|^{p_2}, \end{cases} \quad (12)$$

$$\begin{cases} u(x, 0) = \psi_1(x) \geq 0, \\ v(x, 0) = \psi_2(x) \geq 0, \end{cases} \quad (13)$$

bu yerda $B_1(u) = m_1 \left| k_1 u^{k_1-1} \frac{\partial u}{\partial x} \right|^{p-2} u^{m_1-1}$, $B_2(v) = m_2 \left| k_2 v^{k_2-1} \frac{\partial v}{\partial x} \right|^{p-2} v^{m_2-1}$.

Balans usulini qo'llagan holda (12)-(13) masalani oshkormas ayirmali sxema qo'llaymiz. Iteratsiya usulidan foydalanib quyidagi ko'rinishga kelimiz:

$$\begin{cases} \frac{u_i^{j+1} - u_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2} \left(a_{i+1}(u) \left(u_{i+1}^{j+1} - u_i^{j+1} \right) - a_i(u) \left(u_i^{j+1} - u_{i-1}^{j+1} \right) \right) + c_1 v_1(t) \frac{u_i^{j+1} - u_{i-1}^{j+1}}{h} - G_1 \left(u_i^j, v_i^j \right), \\ \frac{v_i^{j+1} - v_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2} \left(a_{i+1}(v) \left(v_{i+1}^{j+1} - v_i^{j+1} \right) - a_i(v) \left(v_i^{j+1} - v_{i-1}^{j+1} \right) \right) + c_2 v_2(t) \frac{v_i^{j+1} - v_{i-1}^{j+1}}{h} - G_2 \left(u_i^j, v_i^j \right). \end{cases} \quad (18)$$

bunda $s = 0, 1, 2, \dots$

$$G_1(y_i^j, g_i^j) = b_1 (y_i^j)^{q_1} \left| m_1 (g_i^j)^{m_1-1} \frac{g_i^j - g_{i-1}^j}{h} \right|^{p_1},$$

$$G_2(y_i^j, g_i^j) = b_2 (g_i^j)^{q_2} \left| m_2 (y_i^j)^{m_2-1} \frac{y_i^j - y_{i-1}^j}{h} \right|^{p_2}.$$

Iteratsiya usuli yaxshi qurib olingan boshlang'ich yechimni talab qilishi ma'lum, bu o'z navbatida masalaning yechimiga tez yaqinlashishni ta'minlaydi.

Bu yerda $a(u)$ va $a(v)$ lar+ni hisoblash uchun quyidagi formulalardan biri olinadi

$$\begin{cases} a_i(u) = B_1 \left(\frac{u_i^j - u_{i-1}^j}{2} \right), & a_i(u) = \frac{B_1(u_i^j) + B_1(u_{i-1}^j)}{2}, \\ a_i(v) = B_2 \left(\frac{v_i^j - v_{i-1}^j}{2} \right), & a_i(v) = \frac{B_2(v_i^j) + B_2(v_{i-1}^j)}{2}. \end{cases}$$

bunda $s = 0, 1, 2, \dots$

$$\begin{cases} G_1 \left(u_i^j, v_i^j \right) = b_1 \left(u_i^j \right)^{q_1} \left| \frac{\left(v_{i+1}^{j+1} \right)^m - \left(v_i^{j+1} \right)^m}{h} \right|^{p_1}, \\ G_2 \left(u_i^j, v_i^j \right) = b_1 \left(v_i^j \right)^{q_1} \left| \frac{\left(u_{i+1}^{j+1} \right)^m - \left(u_i^{j+1} \right)^m}{h} \right|^{p_1}. \end{cases}$$


u_i^{s+1} va v_i^{s+1} ga nisbatan (18) ayirmali sxemalar qurib olindi.

$$u_i^{j+1} = u_i^j, v_i^{j+1} = v_i^j \text{ ga teng.}$$

Hisoblash jarayoni quyidagi shartlar qanoatlantirilganda amalga oshiriladi:

$$\max_{0 \leq i \leq n} \left| u_i^{s+1} - u_i^s \right| < \varepsilon, \quad \max_{0 \leq i \leq n} \left| v_i^{s+1} - v_i^s \right| < \varepsilon.$$

Dissertasiyaning «Parabolik tipdagi nochiqli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanadigan konvektiv ko‘chishga va dempirlash hadiga ega bo‘lgan diffuziya jarayonlarini sonli yechish algoritmi va dasturiy majmuasini yaratish» deb nomlangan to‘rtinchi bobida parabolik tipdagi nochiqli tenglamalar sistemasi orqali tasvirlanuvchi konvektiv ko‘chish va dempirlash hadiga ega bo‘lgan diffuziya jarayonini sonli yechish uchun universal va yuqori samara beruvchi hisoblash algoritmlar asosida dasturiy majmuani ishlab chiqish hamda dasturiy majmua uchun zarur bo‘lgan bochlang‘ish ma‘lumotlarni shakllantirish uchun axborot massivini va qulay muloqotni tashkil etuvchi foydalanuvchi interfeysini yaratish masalalari ko‘rib chiqilgan.



3-rasm. Konvektiv ko‘chishga ega bo‘lgan va dempirlash ta‘sirida ikki karra nochiqli diffuziya jarayonini sonli yechish uchun yaratilgan dasturiy majmuaning modullari tavsifi.


Bu orqali o‘rganilayotgan masalalarni sonli yechish, parametrlarning turli sonli qiymatlarida kompyuterda hisoblash effektivlikni va ishonchlilikni yanada

oshirilgan, tajriba sinov natijalarini grafik ko‘rinishda vizual formada taqdim etish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

To‘rtinchi bobning «Konvektiv ko‘chishga ega bo‘lgan va dempirlash ta‘sirida ikki karra noxiziqli diffuziya jarayonini sonli modellashtirish algoritmini yaratish» deb nomlangan birinchi paragrafida ikki komponentli muhitda diffuziya jarayonini tasvirlaydigan noxiziqli masalaning sonli yechish uchun hisoblash algoritmlari va dasturiy majmua modullari keltirilgan (3-rasm).

«Konvektiv ko‘chishga ega bo‘lgan va dempirlash ta‘sirida ikki karra noxiziqli diffuziya jarayonini samarali algoritm asosida hisoblash dasturiy majmui»ning dasturiy majmui noxiziqli muhitda konvektiv ko‘chish va dempirlash hadiga ega bo‘lgan diffuziya jarayonini sonli o‘rganishda asosiy ko‘rsatgichlar bo‘yicha hisoblash tajribalarini olib borishni amalga oshiradi. Bu tizimdan foydalanish noxiziqli muhitda ikki komponentli diffuziya jarayonini tadqiq qilish samaradorligini oshiradi.


To‘rtinchi bobning «Konvektiv ko‘chishga ega bo‘lgan va dempirlash ta‘sirida ikki karra noxiziqli diffuziya jarayonini sonli yechish uchun yaratilgan dasturiy majmuaning foydalanuvchi interfeysi» deb nomlangan uchinchi paragrafda diffuziya jarayonini sonli yechish natijalarini saqlash va chiqarish bloki keltirilgan. Natijalarni saqlash va chiqarish blokida hisoblash tajriba natijalarini saqlash va vizuallashtirish modullari ishlab chiqilgan.



4-rasm. $p1=1.2, p=2.2, m1=1.6, k1=1.5, b1=1.2, q1=1.5, p2=1.2, p=2.2, m2=1.6, k2=1.5, b2=1.2, q2=1.5$ qiymatlarda u va v konsentratsiya uchun diffuziya jarayoni.

4-rasmda $p1=1.2, p=2.2, m1=1.6, k1=1.5, b1=1.2, q1=1.5, p2=1.2, p=2.2, m2=1.6, k2=1.5, b2=1.2, q2=1.5$ holi uchun (16)-(17) masalani sonli yechish natijasida konvektiv ko‘chish hamda dempirlash ta‘sirida vaqtga bog‘liq holda diffuziya jarayoni qanday borishini ko‘rish mumkin.

Tajriba sinov o'rganilayotgan jarayonning turli hollarida, ya'ni (16) tenglamalar sistemasidagi sonli parametrlarning turli qiymatlarida o'tkazildi (5-6-rasmlar). Tajriba sinov natijalari shuni ko'rsatadiki dissertatsiya ishida yangi yondashuvlar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar, avtomodel yondashuv asosida qurib olingan global yechimlarning sifat xossalari samarali effekt berdi. Tajriba sinov natijalari grafiklardagi tasviri vaqt bo'yicha o'zgarishi tasvirlangan.



5-rasm. $p1=283, p=2.2, m1=2.5, k1=2.7, b1=2.2, q1=2.5, p2=2.8, p=2.2, m2=2.5, k2=2.7, b2=2.2, q2=2.5$ qiymatlarda u va v konsentratsiya uchun diffuziya jarayoni.

Olingan natijalarga asoslanib, avtomodel yechim qurish orqali tanlangan asimtotika boshlang'ich yaqinlashish sifatida olingan, hamda $p1=283, p=2.2, m1=2.5, k1=2.7, b1=2.2, q1=2.5, p2=2.8, p=2.2, m2=2.5, k2=2.7, b2=2.2, q2=2.5$ parametrlar vaqtning har sekundida diffuziya jarayonini so'nishini kuzatildi, dempirlash va konvektiv ko'chish ta'sirida jarayonning vaqtda bo'yicha qanday borishini vizual ko'rish mumkin.

XULOSA

«Parabolik tipdagi nochizikli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanadigan harakatlanuvchi muhitlardagi diffuziya jarayonlarini sonli modellashtirish» mavzusidagi falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ikki komponentali muhitlarda parabolik tipdagi nochizikli tenglamalar sistemasi orqali tavsiflanuvchi nochizikli filtratsiya, issiqlik tarqalish, diffuziya jarayonlarining matematik modeli uchun manba, o'zgaruvchan zichlik, konvektiv ko'chish va dempirlash hadi ta'sirida tarqalishning chekli tezligi, fazoviy lokallashish xossalari aniqlandi.

2. Avtomodel, taqribiy avtomodel yondashuv va yechimlarni taqqoslash prinsipi asosida ikki komponentali muhitda konvektiv ko‘chish ta’sirida fazoviy lokalizatsiya, global yechim asimptotikalari aniqlandi va front bahosi olindi. Topilgan asimptotikadan masalalarni sonli yechish uchun boshlang‘ich yechim sifatida foydalanish mumkin.

3. Nochiziqli diffuziya jarayonlarini nochiziqli effektlarni saqlagan holda matematik va kompyuterli modellashtirish uchun sonli sxemalar, yechish algoritmlari va dasturlar majmuasi yaratildi, bu esa diffuziya jarayonlarini kompyuterda visual kuzatish imkonini berdi.

4. Ishlab chiqilgan dasturlash uslublari nochiziqli filtratsiya, issiqlik tarqalish, nochiziqli muhitda diffuziya, yer osti suvlarining harakati masalalarida hisoblash eksperimenti o‘tkazish orqali nochiziqli reaksiya-diffuziya jarayonlarini o‘rganishga xizmat qildi hamda ikki komponentli muhitda diffuziya jarayonini muhit parametrlarini hisobga olgan holda tez va sekin diffuziya jarayonlarida ko‘chish va so‘nishini kuzatish imkonini berdi.

5. Hisoblash usullari yordamida masalaning sifatli nochiziqli xususiyatlarni o‘rganish uchun hisoblash sxemalari, algoritmlar tuzilgan, hisoblash eksperimenti amalga oshirilgan, dasturlar majmui ishlab chiqilgan. Bu analitik yechimga ega bo‘lmagan yechimlarni sonli yechish va vizuallashtirish imkonini berdi. Ushbu dasturlar to‘plami ishlab chiqarishda resurslar va vaqt harajatlarini kamaytirish maqsadida joriy qilindi, undan fan va ta’limda, tabiatdagi turli jarayonlarni modellashtirish uchun ham foydalanish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.13/30.12.2021.Т.142.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

**НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ РАЗВИТИЯ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

ФАЙЗУЛЛАЕВА ЗАРНИГОР ИНАТИЛЛАЕВНА

**ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДИФФУЗИОННЫХ ПРОЦЕССОВ
В ДВИЖУЩИХСЯ СРЕДАХ, ОПИСЫВАЕМЫХ СИСТЕМОЙ
НЕЛИНЕЙНЫХ УРАВНЕНИЙ ПАРАБОЛИЧЕСКОГО ТИПА**

05.01.07 – Математическое моделирование. Численные методы и комплексы программ

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.PhD/T3287.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте развития цифровых технологий и искусственного интеллекта.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.aigi.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Садуллаева Шахло Азимбаевна доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Пудатов Асхад Мухаммедович доктор физико-математических наук, профессор Муратов Фаррух Абдукахарович доктор философии технических наук.(PhD)
Ведущая организация:	Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «11» декабрь 2023 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета Phd.13/30.12.2021.T.142.01 при Научно-исследовательском институте Развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. (Адрес: 100125, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский р-н, Буз-2, 17А. Тел.:(99871) 263-41-98; e-mail: info@aigi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Научно-исследовательском институте Развития цифровых технологий и искусственного интеллекта (регистрационный номер № 34). (Адрес: 100125, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский р-н, Буз-2, 17А. Тел.: (99871) 263-41-98).

Автореферат диссертации разослан «30» ноябрь 2023 года.
(протокол рассылки № 7 от «17» ноябрь 2023 г.)



Н.Равшанов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Ф.М. Нуралiev
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Э.Ш.Назирова
Председатель научного семинара
при научном совете
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется исследованию нелинейных уравнений и систем уравнений, представляющих многие процессы, встречающиеся в природе, и широко используются во многих областях науки и техники, в частности, в механике, физике, технике, экологии, биофизике, биология, медицине и в других областях. Поэтому большое внимание уделяется исследованию нелинейных математических моделей, построению эффективных схем и алгоритмов численного решения, созданию их программного обеспечения с использованием возможностей компьютерных технологий. По данным базы научных публикаций и цитирований, созданная компанией Elsevier, количество научных работ, посвященных нелинейной фильтрации и биологической популяции при решении задачи Коши для нелинейного уравнения реакции-диффузии с граничными условиями и применении ее результатов на практике, написанные мировыми учеными, с каждым годом быстро растет. В развитых в этой области странах мира, в том числе в США, Российской Федерации, Японии, Азербайджане, Турции, Китае и других странах, изучаются и исследуются нелинейные задачи реакции-диффузии, а также задача Коши и краевые задачи для этих уравнений параболического типа, применение которых на практике приобретает все большее значение.

